

BIOETIKA VA DEONTOLOGIYA ASOSLARINI XIRURGIK BEMORLARNI QABUL QILISHDA QO'LLANISHINING AHAMIYATI

TEMIROV SHAHRIYOR VOHID o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

RASHIDOVA ZEBO RAHMATULLA qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Yunusov Oybek Turayevich

Umumiy xirurgiya kafedirasi PhD. Assistenti

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bioetika va deontologiya tamoyillarining xirurgik bemorni qabul qilish jarayonida qo'llanilishi va tibbiyot amaliyotidagi muhim roli batafsil tahlil qilinadi. Bioetika-inson hayoti, sog'ligi va uning huquqlariga oid axloqiy tamoyillar tizimi bo'lib, bemorning roziligi insoniy qadrdimmati

va shaxsiy erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan. Deontologiya esa shifokor va boshqa tibbiyot xodimlarining kasbiy axloq qoidalari to'plami bo'lib shifokorning bemor bilan munosabatida halollik, ma'suliyat va hurmatni ta'minlaydi.

Maqolada bemor bilan samarali kommunikatsiya, axloqiy qarorlar qabul qilish va bemorning huquqlarini himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: Tibbiy etika, tibbiy deontologiya, tibbiy sir, bioetika tibbiy xodimlarning o'zaro munosabati

KIRISH: Tibbiy etika-tibbiyot xodimlarining axloqiy me'yorlari to'plami. Etika-yunoncha "etos"-odat degan ma'noni anglatadi. Jamoyatda odamlarning xatti-harakatlari va munosabatlarini normal qoidalar va urf-odatlar boshqaradi. Ularga asosan tibbiyot xodimlarining etik va axloqiy tamoyillari belgilanadi; burch sha'n qadr-qimmat, vijdon, baxt-saodat. Ushbu maqolada tibbiy

etika prinsplari shifokorlarning kundalik faoliyatida kuzatilishi kerak, tibbiyot xodimining burchi bemorga yuqori professional dajada yordam berish, hech qachon

hech qanday bahona sababli bemorning jismoniy va ruhiy salomatligi balki bo'lg'usi avlod hayoti va salomatligini yaxshilash kiradi. Bular tinchlik uchun kurash, ommaviy qirg'in vositalarini yaratish va to'plashga qarshi kurash atrof muhitni muhofaza qilish.

Tibbiy deontologiya yunoncha deontos-kerak bo'lgan majburiyat tibbiy xodimlarning o'z professional majburiyatlarini bajarishdagi axloqiy normalari va tamoyillari to'plamidir. Deontologiya tibbiyot xodimining axloqiy harakatlarini o'rganadi, davolash samaradorligini maksimal oshirishga qaratilgan harakatlarni o'rganadi, tibbiy faoliyat davomida salbiy omillar va tibbiy xizmatning to'laqonli bo'lmasligini oldini oladi. Shifokor nafaqat o'z sohasining professional bali bemozlar va hamkasblari bilan samarali munosabatda bo'lish, shuningdek o'z ishini yuqori saviyada bajarish uchun zarur bo'lgan muhim axloqiy fazilatlariga ega shaxsdir. Shifokorning axloqiy kasbiy fazilatlar bemoz va davolovchi o'rtasidagi ishonchning asosini tashkil qiladi. Shuningdek davolanish

va

tibbiyotning umumiy rivojlanishidagi muvafaqqiyatini belgilaydi.

Hamdardlik va rahm-shafqat shifokorning bemoz og'rig'i va tajribasini tushunish va baham ko'rish qobilyatidir. Bu sifat bemoz o'zini tushunganini va qo'llab-quvvatlayotganini his qilish uchun zarur. Halollik shifokorning eng muhim fazilatlaridan biridir. Shifokor har doim bemorga uning holati , mumkin

bo'lgan davolash usullari va xavflari haqida aniq ma'lumot berishi muhimdir. Shifokorlar doimo o'z xatolarni tan olishi kerak. Xato qilsa o'z ustida ko'p ishlashi kerak. Shifokor adolatli va xolis bo'lishi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi, moliyaviy imkoniyatlaridan qat'iy nazar barcha bemorlarga

bir

xil sifatli tibbiy yordam ko'rsatishi kerak. Adolat shuningdek, tibbiy maxfiylikni saqlash yoki tashqi omillarga ko'ra kamsitmaslik qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bemorga faqat davolash obyekti sifatida emas balki individual shaxs sifatida munosabatda bo'lish muhimdir. Shifokor bemor bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga intilishi va uning tajribarisi va avzalliklariga e'tiborli bo'lishi kerak. Kasbi fazilatlar shifokorning tayyorgarlik va malakasini uning haqiqiy tibbiyot amaliyot sharoitida o'z vazifalarini bajarish qobiliyatini beldilaydi. Yuqori malakali shifokor o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. U o'z yutuqlardan xabardor bo'lishi va o'z sohasidagi texnika va asboblardan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak. Kurslar, seminarlar va tadqiqotlar orqali uzluksiz kasbiy rivojlanish professional uchun majburiydir.

Shifokor nafaqat tibbiy muolajalarni bajarish va diagnostic usullardan foydalanish balli bemorlar bilan birga hamkasblar bilan ham samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Xalqaro vrachlik deontologiya kodeksiga ko'ra shifokorga 2 ta strategik talablar qo'yiladi: birinchisi bilim, ikkinchisi insonlarga ijobiy munosabat. Tibbiy xodimlarning o'zaro

munosabatlari. Kasalxona

sharoitida tibbiyot xodimlari o'rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. **TIBBIY SIR.** Tibbiy xodim tekshiruv, davolash va kuzatuv vaqtida olingan bemor haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish huquqiga ega emas. Bemorning holati kasallikning natijasi ishlatilayotgan davolashni baholash va boshqalar barilla aytilmaydi. Tibbiy sirni saqlashda tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritish va saqlash muhim ahamiyatga ega. Hujjatlarning hech birida tibbiy sirlarni oshkor qilish manbai bo'lishi kerak emas.

Tibbiyot xodimlarining o'zaro munosabatlari. Kasalxona sharoitida tibbiyot xodimlari o'rtasidagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Tibbiy xodimlarning axloqiy qoidalarini buzish ularning kasbiy majburiyatlarini bajarmasligi davolash jarayonini samaradorligiga ta'sir qiladi. Bemor bolalar yoki

ularning qarindoshlari oldida har qanday holatda ham tibbiy xodimlar o'zaro o'rtasidagi munosabatni hal qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tibbiy xodimlarning ota-onalari va bemor bolaning qarindoshlari bilan

o'zaro munosabatlari.Ota-onalar kasallikni qiyin qabul qilishadi.Og'ir kasallangan bemorning onasi psixologik jihatdan travma oladi va noadekvat munosabat tavsiya bildirishi mumkin.Shu sababli tibbiy xodimlar istisno qilmasdan onaga alohida e'tibor berishlari zarur.Kasalxonada og'ir kasal bo'lgan bola g'amxo'rlik qiluvchi onalarga alohida e'tibor berishlari zarur.Ayolni so'z bilan ishontirish nafaqat dam olish balki ovqatlanish uchun zarur shart sharoitlarni yaratib berish,bolaning to'g'ri davolanishiga ishonch hosil qilishiga yordam

berish

muhimdir.Ona shifokor tomonidan tayinlangan manipulyatsiya muolajalarni ahamiyati zarurligini tushuntirish

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bioetika va deontologiya prinsiplari asosida harakat qilish xirurgik amaliyotda bemorning hayoti salomatligi va huquqlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.Shuning uchun ushbu tamoyillarini chuqur o'zlashtirish va amaliyotda izchil qo'llash har bir tibbiyot hodimining asosiy vazifasidir.Shifokorning bemorga nisbatan hurmat halollik insonparvarlik,maxfiylik va tenglik asosida yondashuvi nafaqat bemorning huquqlarini himoya qiladi va qaror qabul qilishda va davolash samaradorligini oshiradi.Xirurgik aralashuv oldidan bemorning ongi roziligini olish to'g'ri

axborot

berish va qaror qabul qilishda uni faol ishtirok ettirish-etika tamoyillar asosida yuritiladigan amaliyotlar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmatov B.T., Abdurahimova L.A. Tibbiyot kasbiga kirish. — Toshkent.

2. Axmedov Y.M., Rabbimova D.T., Yarmuhammedov S.N., Xayitov U.X.

Tibbiyot kasbiga kirish. — Toshkent.

3. Karimov Sh.I. Tibbiy etika va deontologiya asoslari. — Toshkent.

4. Ismoilov I.I. Xirurgiyada deontologiya masalalari. — Toshkent.

5. World Health Organization (WHO). Medical Ethics and Patients' Rights.

6. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. — Oxford University Press.

7. Journal of Medical Ethics. Ethical Issues in Surgical Practice.

8. PubMed. Informed Consent in Surgery: Ethical Aspects.

9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Shifokorlarning kasbiy axloq kodeksi.

10. Grando A.A. Vrachlik etikasi va tibbiy deontologiya. — Kiyev.

11. Xrustalyov V.I. Xirurgiyada bioetika masalalari. — Sankt-Peterburg.